BUXORO VILOYATI PESHKU TUMANI HOKIMINING
QARORI

201200, Peshku tumani, Amir Temur ko‘chasi, 3-uy. Tel: (65) 35-31- 6-31, faks: (65) 35-31-570, peshku.t@exat.uz

2022 - yil 20 - dekabr 632-2-39-Q/22 Peshku tumani hokimligi

Peshku tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta‘minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

Peshku tumanida “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari”ga rioya etilishini ta‘minlash, tuman hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasining ijrosini ta‘minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Peshku tumani ichki ishlar bo‘limi hamda tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining Peshku tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta‘minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risidagi xatlari inobatga olinsin.

2. 4p-48 “Zarafshon trakti” davlat ahamiyatidagi avtomobil yo‘lining 319-kilometrida tuman dehqon bozori oldidan o`tuvchi yo`lning o`ng va chap tomonida 2 dona hamda tuman tibbiyot birlashmasi oldidan o`tuvchi ushbu yo`lning 320-kilometri chap tomonida 1 dona taqiqlovchi 3.27 “to`xtash taqiqlanadi” yo‘l

belgilari o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Peshku tumani ichki ishlar bo‘limi (A.Nosirov), tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (I.Hamroyev)ga ushbu yo‘l belgisini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu qaror “Peshku ovozi” gazetasi hamda tuman hokimligining rasmiy vebsaytida e‘lon qilinsin.

5. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijro etilishini nazorat qilish tuman hokimining o`rinbosari Sh.Bozorov zimmasiga yuklansin.

Туман ҳокими **В.Қаҳҳоров**